

O'ZBEKISTONDAGI BELARUSLAR HAQIDA

Xomitov Ravshan Xomitovich

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti dotsenti vazifasini bajaruvchi, t.f.f.d
(PhD)

Annatotsiya: Ushbu maqolada ko'p millatli O'zbekistonda belarus diasporasi masalasiga bag'ishlangan.

Unda ushbu xalqlarning O'zbekiston hududiga ko'chib kelishi, joylashuvi, mashg'uloti va turmush tarziga oid arxiv manbalariga asoslanib ma'lumot beriladi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining belarusliklarga yaratib bergen sharoiti, o'zbek xalqining bag'rikenglikgi va bu xalqlar bilan hamjihatligigiga oid ilmiy tahlillar bayon qilinadi.

Kalit so'zlar: millatlararo bag'rikenglik, migratsiya, muloqot, statistika, demografiya, etnik tarkib, milliy markaz.

О БЕЛОРУСАХ В УЗБЕКИСТАНЕ

Хомитов Равшан Хомитович

и.о. доцент Национального университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека, кандидат исторических наук.

Аннотация: Данная статья посвящена вопросу белорусской диаспоры в многонациональном Узбекистане.

В нем представлены сведения, основанные на архивных данных, о миграции, местонахождении, занятиях и образе жизни этих народов на территорию Узбекистана. Также описан научный анализ условий, созданных Республикой Узбекистан для белорусов, толерантности узбекского народа и солидарности с этими народами.

Ключевые слова: межнациональное согласие, миграция, общение, статистика, демография, этнический состав, национальный центр.

ABOUT BELARUSIANS IN UZBEKISTAN

Khomitov Ravshan Khomitovich

Acting associate professor of the National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek,
Ph.D. (PhD)

Abstract: This article is devoted to the issue of the Belarusian diaspora in multi-ethnic Uzbekistan.

It provides information based on archival data on migration, location, occupation and lifestyle of these peoples to the territory of Uzbekistan. Also, the scientific analysis of the conditions created by the Republic of Uzbekistan for the Belarusians, the tolerance of the Uzbek people and solidarity with these peoples is described.

Key words: interethnic harmony, migration, communication, statistics, demography, ethnic composition, national center.

Ma'lumki, O'zbekiston hududi barcha davrlarda ko'p millat va turli din vakillari yashaydigan makon hisoblangan. Bunday holat sodir bo'lishiga ma'lum sabablar ham imkoniyat bergen.

Xususan, birinchidan: qadimdan bu hududda yashovchi xalqlar tabiiy hodislarning oldida ojiz bo'lib, yashash va turli sabablar bilan migratsiya jarayonlarini sodir etgan.

Ikkinchidan: doimiy ravishda janub, sharq, shimoldan bu mintaqaga harbiy hujumlar qilingan. Buning natijasida ko'p hollarda ma'lum vaqtga qadar o'lkaning qaramligi bilan yakunlangan. Aynan shu jarayon ko'p millatlilik holatiga asosiy sabab bo'lgan. O'z navbatida O'zbekiston hududida ulkan davlatlar ham vujudga kelgan, shu vaqtarda boshqa hududlardagi olimlar, harbiylar, savdogarlar, ishchilar, asirlar bu hududlarga ko'chirib kelingani ham ma'lum.

Uchinchidan: savdo – sotiq munosabatlari, madaniyatlararo munosabatlar, dinlararo masala va boshqa ko'plab sabablar bilan majburiy yoki ixtiyoriy holda ko'chirib yoki ko'chib kelishlar natijasida O'zbekiston hududida turli millat va xalqlardan iborat etnik tarkib vujudga keldi.

Jumladan, ko'p millatli O'zbekiston aholisi belaruslar ham mavjuddir. Garchi, masofa

jihatidan bir – birdan uzoqda joylashgan o‘zbek va belarus xalqlari o‘rtasidagi munosabatlar o‘rtasida asrlarga borib taqalsada, ya’niki, bu asosan savdo – sotiq hamda madaniy munosabatlarda o‘z aksini topgan.

Biroq bu ikki xalqlar o‘rtasidagi munosabatlar asosan Rossiya imperiyasi hamda sovet Rossiyasi davlatining milliy siyosati bilan bog‘liqdir. Chunki, tarixning ma’lum davrida bu hududlar aynan shu davlatlarga siyosiy qaram bo‘lgan.

Aynan, XIX asrning 60 yillaridan boshlab, O‘zbekiston hududidagi xonlik va amirlik erlariga Rossiya imperiyasi bosqinining boshlanishi, slavyan xalqlarining bu hududlarga ko‘chirib kelishiga asosiy sabab bo‘lgan.

Ular asosan harbiy xizmatchi, ishchi, sanoat, ta’lim, sog‘liqni saqlash va boshqa sohalarining vakillaridan bo‘lgan belarusliklar ko‘chirib keltirilgan. Bu haqida 1897 yil aholini ro‘yxatga olish hujjatlarida qayd qilinadi. Bundan ma’lumki ularning soni kamchilikni tashkil etgan. Biroq vaqt o‘tib belarusliklar O‘zbekiston hududida ko‘chib kelishi faollashtirilgan.

O‘sha davrlardagi siyosiy voqealarni nazarda tutib, belarusliklarning O‘zbekiston hududiga ko‘chib kelish holatini quyidagicha davrlarga bo‘lish mumkin: Jumladan,

Birinchi davr: Rossiya imperiyasi boshqaruv vaqtida sodir bo‘lgan.

Ya’niki, XIX asr 60 yillarning birinchi yarmida belaruslik etnik guruh vakillari Markaziy Osiyoga majburiy holda ko‘chirib keltirilgani haqida tarixiy dalillar mavjud.

XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab Turkiston o‘lkasi hududida joylashgan rus qo‘sishnlarida, mahalliy rus ma’muriyatida va mutaxassislar – er o‘lchagichlar, topograflar hamda boshqa sohalar tarkibida belaruslar kam sonda bo‘lsada, mavjud bo‘lgan.

Shuningdek, aynan XIX asr davomida belaruslar unumdar erlarning taqchilligi sababli ham ma’lum bir ijtimoiy muammolarga duch kelgan.

Bu davrda belaruslarning O‘zbekiston hududidagi eng zinch yashash joylari Samarqand viloyati hamda Farg‘ona vodiysi hududlari bo‘lgan.

Shaharlardan - Toshkent, Samarqand, Qo‘qon shaharlarida ularning vakillari ko‘pchilikni tashkil etgan.

Birinchi jahon urushi yillarida Turkistonga oz sonli belaruslar qochqin sifatida kelgan. 1917 yilning iyun oyida Toshkentda millatparvar qabiladoshlardan iborat “belaruslar ittifoqi” tuzildi. Ittifoq kichik va ta’sirsiz bo‘lsada, vatandoshlarini ixcham yashash joylarida birlashtirishga harakat qildi. Biroq bu g‘oyalarini amalgalash oshira olmadi.

Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, 1920 yilda Samarqandda 299 nafar, Kattaqo‘rg‘onda 11 nafar, Jizzaxda 7 nafar, Xo‘jant tumanida 91 nafar, Amudaryo bo‘limida 10 nafar belaruslar yashagan. Turkistonda fuqarolar urushining tugashi, iqtisodiyot va qishloq xo‘jaligining barqarorlashuvi bilan belarus etnosining yangi oqimi boshlandi. Bu XIX asr oxiri XX asr boshida hozirgi O‘zbekiston hududi barcha millatlar uchun tadbirkorlik va o‘zining moddiy ahvolini yaxshilab olish uchun imkoniyat beradigan joylardan biriga aylangani ham sabab bo‘lishi mumkin.

Ikkinchidan: sovet Rossiyasining shakllanishining dastlabki davri.

XX asr boshida Tukiston, Buxoro amirligi, Xiva xonligida 9 million aholi yashagan bo‘lib, 500 ming atrofida slavyanlardan (rus, ukrain, belaruslar) iborat bo‘lgan [1].

Shuningdek, 1920 yillar atrofida Turkiston o‘lkasining Sirdaryo viloyati aholisining 0,2 foizi belaruslardan iborat bo‘lgan [2].

1926 yil O‘zbekiston milliy tarkibida belaruslarning ulushi [3].

No	Millati	Ming kishi	Foizda
1.	Barcha aholi	5267,7	100,0
2.	o‘zbeklar	3475,3	66,0
Jumladan:			
3.	belaruslar	3,5	0,1

Uchinchidan: 1941-1945 yillar ikkinchi jahon urushi vaqtlarini o‘z ichiga oladi.

Aynan ushbu yillarda belaruslar bu erda ikkinchi jahon urushidan oldin ham, Qozog‘iston va O‘zbekiston chegarasidagi dashtlarni o‘zlashtirish boshlangan paytda – agronomlar, shudgorlar, qishloq

xo‘jaligi ishchilari sifatida paydo bo‘lgan. Urush paytida odamlar butun oilalari bilan bu erga evakuatsiya qilindi - ular orasida buyuk belarus shoiri va nasriy yozuvchisi Yakub Kolas ham bor edi, uning ijodi Belarus adabiyoti tarixida butun bir davrni tashkil etadi.

Ikkinci jahon urushi yillarida g‘arbiy hududlardan O‘zbekistonga ishchi va xizmatchilar bilan birga zavod va fabrikalar ko‘chirildi. O‘z navbatida, O‘zbekistondan belarus millatiga mansub ko‘plab askarlar frontga jo‘nab ketishdi, ulardan etti nafari Sovet Ittifoqi Qahramoni bo‘ldi. Ular orasida G.M. Stankevich, E.K. Stempkovskaya, A.N. Tulga, E.S. Belyavin, A. A. Vashkevich, V.R. Jigunov, B.A. Maistrenko bor edi.

To‘rtinchidan: 1966 yil Toshkent zilzilasini bartaraf etish uchun belaruslarning ko‘chib kelish davri.

Aynan shu yili bu erga ko‘ngillilar kelishi ixtiyoriy ravishda amalga oshdi. Shu yillarda 2000 dan ortiq belaruslar ko‘chib kelgan. ular ko‘plab uy-joylar, ijtimoiy binolarni qurib aholiga topshirishgan. Masalan, poytaxtning Uchtepa tumanidagi 24-mavzedagi uylar ularning qo‘llari bilan qayta qurilib, ayrimlarga “Toshkentliklarga belaruslardan xursandchilik” degan yozuvlar yozilgan. Umuman olganda, belaruslik quruvchilar tomonidan shaharda 26,6 ming kvadrat metr dan ortiq uy-joy qurildi. Qurilish qisqa vaqt ichida, tom ma’noda yozda, vaqtinchalik binolar hali ham tik turgan paytda bajarilishi kerakligini hisobga olsak, bu katta ko‘rsatkich. Ko‘pchilik ish tugaganidan keyin ham shu erda qolishdi – ularga O‘zbekistonning iliq iqlimi, mahalliy aholining mehmondo‘stligi, mavsumiy meva va sabzavotlarning ma’qul bo‘lgani ham sabab bo‘lgan.

XX asr 50 yillarda belaruslarning O‘zbekistonga mexanik migratsiyasi davom etdi. Mutaxassislar va ishchilar O‘zbekistondagi to‘qimachilik sanoatida ishtirok eta bordi.

Shuningdek, belaruslik harbiy xizmatchilar O‘zbekiston hududda harbiy xizmatni o‘tagani va ba’zi hollarda ular bu hududlarda yashab qolganligini ko‘rish mumkin.

Statistik ma’lumotlarga ko‘ra 1959 yildagi aholini ro‘yxatga olish hujjatlarida O‘zbekistondagi shaharlarda 7 ming, 1970 yilda - 14 ming, 1979 yilda birgina Toshkentda 6326 nafari belaruslar yashagan.

Beshinchidan: 1970-1989 yillar davomida kadrlar siyosati va xalq xo‘jaligi sohasiga ishchilarni ko‘chirib kelish jarayoni sodir bo‘lgan.

Agar ushbu yillarda amalga oshirilgan aholini ro‘yxatga olish hujjatlariga ko‘ra O‘zbekiston aholisi tarkibida belarusliklar miqdorini ko‘radigan bo‘lsak, ular quydagicha:

1939 – 1970 yillar oralig‘ida O‘zbekiston milliy tarkibidagi belarusliklar miqdori [4].

№	Millati	1939 yil		1959 yil		1970 yil	
		Ming kishi	foizda	Ming kishi	foizda	Ming kishi	foizda
1.	Jami aholi	6271,3	100,0	8105,7	100,0	11799	100,0
2.	o‘zbeklar	4.081,1	65,0	5038	62,2	7724,7	65,5
Shu jumladan:							
3.	belaruslar	4,0	0,07	9,5	0,1	17,0	0,15

Demak ko‘radigan bo‘lsak, o‘tgan asrdagi yillar davomida O‘zbekiston hududida belarusliklar doimiy ravishda ko‘payib borgan. Bunga bir qator ob'ektiv va sub'ektiv sabablar imkoniyat yaratib bergen edi.

Shu o‘rinda aytish kerakki, O‘zbekistondagi belarusliklarning asosiy qismi shaharlarda yashagan. Bundan ko‘rinadiki, asosan ular ishchilardan iborat edi. Ya’ni,

O‘zbekistondagi belaruslarning shaharlarda yashash miqdori (% da) [5].

№		Jami shahar aholisi foiz hisobida			
		1939 yil	1959 yil	1979 yil	1989 yil
1.	Jami aholining shaharda yashashi	23,1	33,6	41,4	40,8
2.	belaruslar miqdori	62,5	77,6	84,2	86,2

Demak, agar uni to‘liqroq tahlil qiladigan bo‘lsak, quyidagi holatga guvoh bo‘lishimiz mumkin.

Belarusliklarning O‘zbekistondagi shahar va qishloqlarda yashash holati foizda [6].

№		1939 yil		1959 yil		1979 yil		1989 yil	
		shahar	qishloq	shahar	qishloq	shahar	qishloq	shahar	qishloq
1.	belaruslar	0,2	0,03	0,3	0,05	0,2	0,0	0,3	0,0

Bu davrga oid aholini ro‘yxatga olish hujjalari dagi ma'lumotlarni davom ettirdigan bo‘lsak, quyidagi raqamlarni ko‘rishimiz mumkin.

O‘zbekiston milliy tarkibidagi belarusliklar miqdori [7].

№	Millati	1979 yil		1989 yil	
		Ming kishi	foizda	Ming kishi	foizda
1.	Jami aholi	15389,3	100,0	19810,1	100,0
2.	o‘zbeklar	10569,0	68,7	14142,5	71,4
Шу жумладан:					
3.	belaruslar	25,9	0,2	34,8	0,2

Bu davrda ya'ni 1970-1975 yillarda Toshkent traktor zavodining ochilishi munosabati bilan O'zbekistonga Belarusdan ko'plab mutaxassislar keldi. Belarusliklar ishlab chiqarishning deyarli barcha sohalarida, ilmiy va madaniy muassasalarda ishlashni davom etdi.

Oltinchidan: 1991 yildan O'zbekiston Respublikasi hududidagi belarusliklar diasporasining rivojlanish davri.

So'nggi aholini ro'yxatga olish ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistonda 19 mingga yaqin belarus istiqomat qilgan. Ularning aksariyati pravoslavlар, ammo ularning taxminan 20 foizi katoliklardir.

Keyingi yillarda ba'zi oilalar Belarusga qaytib ketishdi. Bu tabiiy hol hisoblandi.

Eng muhim O'zbekistonda belarus diasporasi a'zolarining milliy urf-odat, marosim, an'ana hamda qadriyatlarini tiklash borasida keng imkoniyatlar yaratib berdi. Uning qonuniy asoslari, tashkiliy jihatlarida ko'mak berdi. Natijada ular uchun O'zbekiston ikkinchi vatanga aylandi.

Shuningdek, «Vetrak» musiqali teatr guruhi tashkil topdi.

Belarus milliy madaniy markazlari tashkil topdi. Ularning eng faol a'zolari Lixodziyevskiy Anatoliy Stepanovich – filologiya fanlari professori, Filanovich Margarita Ivanovna — O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan arxeolog, Natalya Vasilevna Bobrova O'zbekistondagi yagona temirchi ayol bo'lib, TTZ (Toshkent traktor zavodi) da 40 yillik ish tajribasiga ega hisoblandi [8].

O'zbekiston Respublikasida belarusliklarning miqdori [9].

№	millati	2001 yil		2002 yil		2004 yil		2006 yil	
		Ming kishi	foizda						
1.	jami	24813,1	100,0	25115,8	100,0	25707,4	100,0	26312,7	100,0
2.	o'zbeklar	19444,3	78,4	19781,4	78,8	20462,7	79,6	21165,4	80,4
3.	belarus	23,2	0,1	22,7	0,1	21,8	0,1	20,1	0,1

Bu haqdagi fikrimizni davom ettirsak, jumladan, mamlakat poytaxtidagi belarusliklarni miqdori ko'radigan bo'lsak, quyidagicha ko'rinishga guvoh bo'lish mumkin. Chunki, ular asosan Toshkent shahrida yashashgan.

Toshkent shahrining milliy tarkibida belarusliklar [10].

	Millati	1959 yil		1970 yil		1979 yil		1989 yil	
		Ming kishi	foiz						
1.	o'zbek	339,6	34,4	513,0	37,2	718,5	40,8	910,3	44,2
2.	belarus	2,7	0,3	5,9	0,4	6,3	0,4	10,7	0,5

O'zbekistonda yashovchi belarusliklar turli millat vakillari bilan ko'plab aralash nikohlar mayjud hisoblanadi.

O'zbekiston mustaqillikka erishganidan keyin 1993 yilda Toshkent shahrida "Svitanak" belarus madaniy markazi tashkil etildi. Shundan boshlab o'zbekistonlik belaruslar o'z ona tilini, ajdodlar madaniyatini o'rganish va xalq bayramlarini tiklash imkoniyatiga ega bo'ldilar. Markaz madaniy ma'rifiy faoliyatining ustuvor yo'nalishlari muhim sanalarga bag'ishlangan ma'ruzalar, kontsertlar va tadbirlarni o'tkazib keldi.

Markaz qoshida yana bir yoshlardan tarkib topgan jamoa — "Dvijeniye" raqs ansamblı faoliyat ko'rsatadi. Uning repertuarida belarus, o'zbek va boshqa xalqlarning raqslari o'rinn olgan.

Umuman xulosa qilib aytganda 2017 yil ma'lumotiga ko'ra butun dunyoda bo'ylab, ya'ni 55 ta davlatda 1 484 875 nafar belarus yashab kelmoqda. Jumladan, ularning ma'lum qismi O'zbekistonda istiqomat qiladi .

1993 yil 21 yanvardan boshlab O‘zbekiston – Belarusiya o‘rtasida diplomatik aloqlar o‘rnatilar ekan, ikki xalqning tarixan tarkib topgan xalqlar do‘stligi, o‘zaro bir – birini tushunishi, og‘ir hamda qiyin damlarda sinovdan o‘tgan hamfikrligi davlatlararo munosabatlarda xalq diplomatiyasi sifatida muhim kafolat bo‘lmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

О.Б. Ата – Мирзаев Народонаселение Узбекистана история и современность. - Т., 2009. – С.114 бет

Станюкович Т.В поселения и жилища русского, украинского и белорусского населения среднеазиатских республик и Казахстана // этнография русского населения Сибирь и Средней Азии. –м., 1962. - С.222

Всесоюзная перепись населения 1926 Т., ХУ. – М., 1928. С.8-9

Манбалар: О.Б. Ата – Мирзаев Народонаселение Узбекистана история и современность Т., 2009 й. С 129, Итоги всесоюзной переписи населения 1959 года. Узбекская ССР. –М., 1962. – С.138-143., Итоги всесоюзной переписи населения 1970 года. Т., IV. Национальный состав СССР. Часть 1. Книга 2. – М., 1971. – С.546.

О.Б. Ата – Мирзаев Народонаселение Узбекистана история и современность Т., 2009 й. С 92

Итоги всесоюзной переписи населения 1989 года. Национальный состав Узбекская ССР. –Т., 1990. – С.57-58

Итоги всесоюзной переписи населения 1989 года. Национальный состав Узбекская ССР. –Т., 1990. – С.51-56

<https://repost.uz/>

Демографический ежегодник Узбекистана 1991 – 2003. Государственный комитет Республики Узбекистан по статистике. – Т., 2004.

Ахмедов Э.А., Сайдаминова З.А. Республика Узбекистан: Краткий справочник. – Т., Узбекистан, 1995.